

HODISA JOYINI KO‘ZDAN KECHIRISHNING KRIMINALISTIK JIHATLARI

Xolmatova Muxlisa Shermuhammad qizi

Farg‘ona viloyati yuridik texnikumi

“Sud-huquqiy faoliyat” yo‘nalishi 2-bosqich 23-guruh o‘quvchisi.

Annotatsiya:

Ushbu maqolada muallif tomonidan sodir etilgan jinoyatlarni tez, to‘liq va o‘z vaqtida ochilishini ta‘minlashda eng muhim bo‘lgan hodisa joyini ko‘zdan kechirish tergov harakatining umumiy kriminalistik jihatlari haqida so‘z yuritilgan.

Kalit so‘zlar: jinoyat, tergov versiyasi, hodisa joyi, tezkor qidiruv, ashyoviy dalil, kriminalistik jihat.

Аннотация:

в этой статье рассматриваются общие криминалистические аспекты следственного действия по осмотру места происшествия, которые являются наиболее важными для обеспечения быстрого, полного и своевременного раскрытия преступлений, совершенных автором.

Ключевые понятия: преступление, версия следствия, место происшествия, оперативно-розыскные мероприятия, вещественные доказательства, криминалистический аспект.

Abstract:

This article discusses the general criminalistic aspects of the investigative action of inspecting the scene, which is most important in ensuring that crimes committed by the author are quickly, fully and timely opened.

Key concepts: crime, investigative version, scene of the incident, quick search, material evidence, criminalistic aspect.

Ma‘lumki, sodir etilgan jinoyatlarni tez va to‘liq, o‘z vaqtida ochishda o‘tkaziladigan tergov harakatlaridan dastlabki va eng muhim tergov harakati bu



hodisa joyini ko‘zdan kechirishdir. Ko‘zdan kechirish-hodisa yuz bergan joyini tergovchi tomonidan tekshirilib, jinoyatga tegishli bo‘lgan moddiy narsalarni; izlarni, jinoyat qurolini, jinoyatni sodir qilishda gumonlangan shaxsga tegishli ma’lumotlarni olishdan iboratdir.

Ko‘zdan kechirish mustaqil tergov harakati bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat Protsessual Kodeksining 135-140- moddalari bilan tartibga solingandir. Mazkur tergov harakati ko‘p turdagi jinoyatlarni tergov qilishda dastlabki va kechiktirib bo‘lmaydigan, jinoyatni ochishda muhim bo‘lgan dalillarni topishni ta’minlaydigan harakatdir.

Odatda, hodisa joyi deganda jinoyat sodir bo‘lgan joyini, jinoyatga tegishli bo‘lgan narsalarni (izlar, qurol sifatida ishlatilgan predmetlarni ashyoviy dalillarni topilgan joylarini, jinoyatda gumonlanuvchi shaxsni ushlagan joyi va boshqa ma’lumotlar olingan joylarni tushuniladi.

Ushbu tergov harakatining maqsad – vazifasi Jinoyat Protsessual Kodeksining 135-moddasi¹da ko‘rsatilgan bo‘lib, sodir bo‘lgan hodisa joyi bilan tanishib chiqib, qanday hodisa yuz berganligini, hodisaning xolatlari yuzasidan dalillarni, jinoiy hodisaning oqibatini, kim yoki kimlar sodir qilganliklarini aniqlashdan iboratdir.

Jinoiy hodisa sodir bo‘lgan joyiga nisbatan quyidagi turlarini keltirish mumkin:

Odamlar yashaydigan bino, inshoot xonalari, xo‘jalik ishlariga mo‘ljallangan va yordamchi xonalar, davlat yoki jamoa tashkilotining xizmat xonalari (ofislar) va ochiq joylardagi ko‘zdan kechirishdir. JPKning alohida moddasida hodisa yuz bergan joyida topilgan murdani ko‘zdan kechirish tartibi berilgan².

Hodisa joyini ko‘zdan kechirish tergov harakati haqidagi qoidalar ham jinoyat protsessual nuqtai nazaridan ham kriminalistik jihatdan o‘rganiladi. Ushbu tergov harakatini o‘tkazishdan maqsad, uning vazifalari, o‘tkazish tartibi va shartlari Jinoyat-protsessual kodeksida belgilab qo‘yilgan bo‘lsa-da, kriminalistika mazkur tergov harakatining taktik jihatlarini ilmiy tadqiq qilish bilan shug‘ullandi. Hodisa joyini ko‘zdan kechirish ning o‘ziga xos bo‘lgan umumiy taktik qoidalari sifatida quyidagilarni aytish mumkin:

Hodisa haqida xabar kelishi bilan tergovchi yoki surishtiruvchi xodimlar tekshiruvni tezda kechiktirib bo‘lmaydigan tarzda o‘tkazishlari lozim, aks holda

¹ O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi. <https://lex.uz/docs/111460>.

² Kriminalistika. Darslik “Adolat” nashriyoti. 1-jild. Prof. F.A.Abdumajidov, dos.A.Norboyev, dos.R.Alimova va boshqalar. Toshkent 2003-y.



izlar, ashyoviy dalillar yo‘qotiladi, atrof holatlar o‘zgaradi, subyektiv (manfaatdor shaxslar tomonidan) va obyektiv (ob-havo, muhit ta’siri) omillar tufayli joy o‘zgaradi, avvalgi xoli birmuncha buziladi, gohida esa mutloq o‘zgarib ketishi mumkin.

- ko‘zdan kechirishni boshqa tergov harakati bilan almashtirish mumkin emas. Tergov jarayonida ba’zi hollarda so‘roq yoki eksperiment o‘tkazilishi iloji bo‘lmaydi, chunki protsessual shaxslarning hayoti, salomatligiga xavf tug‘iladi yoki boshqa qandaydir sabablarga ko‘ra shu tergov harakatining o‘tkazish mumkin bo‘lmaydi, bu hollarda o‘rniga boshqa tergov harakati o‘tkaziladi, ya’ni boshqa chora va tadbirlar bilan almashtirish mumkin. Lekin ko‘zdan kechirish xarakati natijasida olinadigan ma’lumotlarni (izlar, ashyoviy dalillar va h.k.) boshqa tergov harakati to‘ldira olmaydi. Shu sababli ko‘zdan kechirish ko‘p jinoiy ishlar yuzasidan dastlabki, kechiktirib bo‘lmaydigan va boshqa tergov harakati bilan almashtirib bo‘lmaydigan protsessual harakatdir.

- ko‘zdan kechirish maksimal ravishda to‘la va har tomonlama obyektiv o‘tkazilishi lozim. Bu degani hodisa joyini tekshirishda “mayda ahamiyati yo‘q-deyiladigan tushunchaga o‘rin yo‘q. Har bir “mayda” bo‘lgan ashyo (yarim chekilgan sigaret qoldig‘i, uzilgan tugmacha, qoldiq moddalar) ishga muhim bo‘lgan ma’lumotlarni ochib berish mumkin.

Ko‘zdan kechirish jarayonida hosil bo‘ladigan versiya (tahminlar)ni asosli va mantiqqa rioya qilgan tarzda tuzish lozim.

- ko‘zdan kechirishni protsessual qonun normalariga amal qilgan holda, tezkorlik va boshqa taktik qoidalar asosida o‘tkazish lozim. Tezkorlik deganda shoshma-shosharlik emas, balki barcha imkoniyatlarni safarbar qilib, ortiqcha vaqtni o‘tkazmasdan o‘z vaqtida va talabga javob beradigan holda o‘tkazish lozimdir.

Tergov amaliyotida hodisa sodir bo‘lgan joyni ko‘zdan kechirish maqsadi shu hodisadan jinoyat alomatlari, izlari, jinoyat tarkibi mavjudmi, degan masalani hal qilish uchun ham o‘tkaziladi. Shu sababli protsessual qonun mazkur tergov xarakatini jinoiy ishi qo‘zg‘atilmasdan oldin ham o‘tkazish imkonini bergan. Shu jumladan kechiktirib bo‘lmaydigan hollarda ham jinoiy ish qo‘zg‘atilmasdan avval o‘tkazilmog‘i mumkin. Ba’zi hollarda ko‘zdan kechirish yuzaki, e’tiborsizlik, shoshma-shosharlik bilan o‘tkaziladi va natija ko‘ngildagidek bo‘lmay, qayta tashkil qilishga to‘g‘ri keladi. Shuningdek, tergov jarayonida yangi holatlar ochilib qolishi qayta ko‘zdan kechirish o‘tkazish zaruratini tug‘diradi.



Jinoyatning ayrim holatlarini aniqlash va isbotlashda zarur bo'lsa uy hayvonlari, chorva mollarini ularning murda va qoldiqlarini ham ko'zdan kechirish o'tkaziladi. Hodisa joyini ko'zdan kechirish natijalari ijobiy bo'lishi uchun unga yaxshi tayyorgarlik ko'rish lozim. Jinoiy ishning o'z vaqtida ochilishi ham ushbu tergov xarakterini o'tkazishga puxta tayyorgarlik ko'rishlikka bog'liq. Hodisa to'g'risida xabar olingandan keyin hodisa sodir etilgan joyning adresini aniqlash, ko'zdan kechirish ishtirokchilarini (xolislar, mutaxassis, tezkor xodimlar) ta'minlash kabi tashkiliy ishlarni amalga oshirish, hodisa joyini o'zgartirmasdan, begona shaxslarni u yerga kirib-chiqishlarini ma'n etishni ta'minlash uchun tegishli xodimlarga ko'rsatmalar berish, tergov xarakterini natijalarini qayd etish uchun zarur bo'lgan kriminalistik texnikaviy vositalarni hozirlash kabi xarakterlar bajariladi.

Tergovchi hodisa joyiga chiqishdan oldin sodir etilgan jinoyat xarakterini hisobga olgan holda tegishli mutaxassislarni jalb etish masalasini hal etishi lozim.

Hodisa joyiga borgandan keyin tergovchi ko'zdan kechirishni boshlashdan oldin hodisa joyi va ashyoviy dalillarni qo'riqlash to'g'risida bergan ko'rsatmalarining bajarilganligini tekshirib ko'rish, agar bu topshiriqlar bajarilmagan bo'lsa, tergovchi bu masalalarni zudlik bilan hal etishi lozim.

Hodisa joyini ko'zdan kechirish ishtirokchilari ikki kategoriyaga. ya'ni hodisa joyini ko'zdan kechirishda ishtirok etishda majburiy bo'lgan shaxslar va ishtirok etishi majburiy bo'lmagan, lekin faqat tergovchi lozim deb hisoblasa, ishtirok etuvchi shaxslar bo'lishi mumkin. Protsessual shaxs bo'lgan ishtirokchilar surishtiruvchi, prokuror tergov, bo'limining boshlig'i, mutaxassis, xolislar, tezkor-qidiruv organlari xodimlari, kinolog va boshqalardir. Ko'zdan kechirish korxonasi, muassasa, yoki davlat tashkiloti binolarida o'tkazilayotgan bo'lsa ularning vakillari va jamoa tashkiloti a'zolari qatnashuvi mumkin. Ular hodisa joyini ko'zdan kechirishda tergovchi lozim deb hisoblagan hollarda ishtirok etadilar.

Hodisa joyini ko'zdan kechirishda asosiy rahbarlikni tergovchi (surishtiruvchi) amalga oshiradi va uning ruxsatisiz ishtirokchilar dalillarni tekshirish, ko'chirib olish kabi xarakterlarni amalga oshirishlari mumkin emas, faqat tergovchining ruxsati yoki topshirig'i bo'lganidagina bajarishlari mumkin.

Yuqorida aytib o'tilganidek, hodisa joyini ko'zdan kechirish tergov harakati sodir etilgan jinoyat haqidagi ashyoviy dalillarni topish, olish va protsessual mustahkamlash hamda voqea haqidagi dastlabki tergov versiyalarini yuritishdagi



ahamiyatidan kelib chiqib, bu tergov harakatini har tomonlama puxta tayyorgarlik va sinchkovlik bilan o'tkazish talab etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi. <https://lex.uz/docs/111460>.
2. Kriminalistika taktikasi. O'quv qo'llanma "Yangi asr avlodi" T. 2000-y.
3. A.Norboyev, T.Axmedov "Portlovchi vositalar bilan bog'liq bo'lgan hodisa joyini ko'zdan kechirish, ekspertiza tayinlash va o'tkazish tartibi", o'quv qo'llanma Toshkent 2005-y.
4. Kriminalistika. Darslik "Adolat" nashriyoti. 1-jild. Prof. F.A.Abdumajidov, dos.A.Norboyev, dos.R.Alimova va boshqalar. Toshkent 2003-y.

